



PUNKTUATSIYA TADQIQIGA ZAMONAVIY VA ANTROPOTSENTRIK YONDASHUVLAR

To'rayeva Dilbar Meyliyevna,
Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi
dilbarturayeva270@gmail.com

Avvalgi bandlarda ko'rib o'tilganidek, an'anaviy punktuatsion tizim XIX asrning oxiri XX asr boshlarida yevropa yozuvlari negizida to'la shakllanib bo'ladi. Tilshunoslikda punktuatsion nazariyaning shakllanishi va taraqqiyotida uch asosiy bosqich farqlanadi:

- 1) punktuatsiyaga an'anaviy yondashuv – XV asrdan XX asrning o'rtalarigacha bo'lgan davr;
- 2) punktuatsiyaga zamonaviy yondashuv – XX asr o'rtalaridan XX asr oxirlarigacha bo'lgan davr;
- 3) punktuatsiyaga antropotsentrik yondashuv – XX asr oxiri va XXI asr boshlaridan hozirgi kungacha bo'lgan davr.

Punktuatsiya tadqiqining an'anaviy bosqichi deyarli barcha tilshunosliklarda bir davrga to'g'ri kelib, umumiyligi punktuatsion me'yorlarning ommalashishi va mustahkamlanishida muhim rol o'ynadi. Tinish belgilarini ilmiy o'rganish – punktuatsiya tarixiga doir dastlabki nazariy qarashlar M.V.Lomonosov, R.Launch, Dj.Robertson, N.I.Grech, A.X.Vostokov, F.I.Buslayev, K.F.Bekker, V.I.Klassovskiy, Y.K.Grot, V.Dey, J.Angus, J.K.Nesfield, G.Makdonel, M.Spenser, H.V.Fauler, J.Damouretta, A.M.Peshkovskiy, L.V.Sherba, R.Skiltonlarning maktab va ilmiy grammatikalarida o'z ifodasini topdi.

Yevropa tillarida punktuatsion tizim taraqqiyotining asosiy tamoyillari tinish belgilarining umumiyligi funksiyalari taraqqiyoti (iyerarxiyasi)ga asoslanadi. Dastlabki qarashlar ularning ajratish – matn qismlarini ajratish va guruhash vazifasiga tayangan bo'lsa, keyinchalik gap bo'laklarini va ularning gap tarkibida joylashuvi (pozitsiyasi)ni aniqlash asosiy mezon sifatida qaraldi. XX asrning boshlariga kelib tinish belgilarining matnning bo'linishi, gap tarkibida joylashuvi ularning turli tasniflarini yuzaga keltirdi. Jumladan,



1) gap o‘rtasida yakka (vergul, nuqtali vergul, tire, ikki nuqta, ko‘p nuqta) va juft holda (ikki nuqta, tire, qavs va tirnoq) qo‘llanuvchi belgilar;

2) gap oxirida yakka (nuqta, so‘roq va undov belgilari, ko‘p nuqta) va juft (qavs va qo‘shtirnoq) holda qo‘llanuvchi belgilar.

Shuni ta’kidlash lozimki, deyarli barcha tilshunosliklarda punktuatsiyaning nazariy masalalari punktuatsiya amaliyoti, til o‘qitish metodikasi doirasida orfografiya bilan bog‘liq holatda tadqiq etildi. Ma’lumki, har qanday lingvistik talqin muayyan davrga mansub nutq mahsuli asosida ish ko‘radi. Shu bois punktuatsion an’analarning shakllanishi, takomillashuvi, muayyan qoidalarning ommalashishi, umumiyl punktuatsion me’yorlarning mustahkamlanishi va tartibga solinishi, birinchidan, punktuatsiya amaliyoti – shu tilda faoliyat yurituvchi ijodkorlar, yozuvchilar, olimlar faoliyati, ikkinchidan, milliy yozuvning tarkibiy qismi sifatida ona tili o‘qitish metodikasi, ya’ni ona tili ta’limi, uchinchidan, hukumatning yozma savodxonlikni ta’minalash missiyasi – ijtimoiy buyurtmasi doirasida tilning ilmiy me’yorlari – imlo, talaffuz, grammatik me’yorlarni o‘rgatish bilan bog‘liq. Yuqorida tilga olingan, yevropa tillari, xususan, rus tilida punktuatsiyaga doir dastlabki ishlar – M.Smotritskiy, M.V.Lomonosov, Y.K.Grotlarning grammatikasi sof amaliy xarakterda bo‘lib, tilning ilmiy me’yorlari – punktuatsion, orfografik qoidalarni mактабда o‘qitishga asoslangan edi. Xuddi shuningdek, o‘zbek tilshunosligida ham ilk punktuatsion qarashlar orfografiya me’yorlari bilan birga til o‘qitish metodikasi doirasida amalga oshirilgan. O‘tgan asrning birinchi yarmida faoliyat yuritgan aksariyat millat ziyorilari – tilshunoslari, jadidlar, ma’rifatparvarlar asarlarida bu ikki vazifa millatni savodxon qilish, imlo, to‘g‘ri talaffuz me’yorlarini o‘rgatish, nutq madaniyatini o‘stirish tashabbusi ostida uyg‘un holatda olib borilgan. Xususan, Fitrat, S.Mutallibov, S.I.Ibrohimov, Z.M.Ma’rufov, O.U.Usmonov, K.Kamolovlarning darslik va qo‘llanmalari, maqola va lug‘atlarida punktuatsiyaga doir fikrlar adabiy til me’yorlari (imlo, talaffuz), ona tili (sintaksis) o‘qitish, yozuv (alifbo), nutq madaniyati doirasida ko‘rib chiqiladi.

Tinish belgilari taraqqiyotining navbatdagi bosqichida K.F.Bekkerning logik sintaksis nazariyasi hamda punktuatsiyani qo‘llashning asosiy nazariy tayanchi – til o‘qitish metodikasi bilan bog‘liq, sintaktika, semantika va intonatsiyaning ustuvorligi xususidagi bahslar yetakchi o‘rinni egalladi. Ushbu munozaralar tilshunoslikda punktuatsiya asoslarini



belgilashda turli nuqtayi nazarlarni yuzaga keltirdi. Xususan, F.I.Buslayev, S.I.Abakumov, A.B.Shapiro kabilar tinish belgilarini qo'llashning nazariy asosini belgilashda semantika – gapning mazmuniga e'tiborni qaratish, ya'ni tinish belgilarining qo'llanilishini ma'noga bog'lash tarafdori bo'lsa, S.Bulich, N.Grech, Y.K.Grot, Sh.Shoabdurahmonov va boshqalar punktuatsion qoidalarni belgilashda sintaktika – yozma nutqning sintaktik qurilishi, aniqrog'i, tinish belgilarining qo'llanilishini gap qurilishiga bog'lab izohlaydilar. Ayrim nazariyotchilar, masalan, L.V.Shcherba, A.M.Peshkovskiy, K.F.Bekker, L.A.Bulakovskiy, H.Rustamov va boshqalar intonatsiya – punktuatsiyaning nutq ohangi va ritmni ifodalashdagi roli bilan bog'lab tushuntirishga harakat qiladilar. Bu jarayonda turli tilshunosliklarda ushbu jihatlarning qay biriga ko'proq ustunlik berilishi ham e'tibordan chetda qolmadi. Xususan, V. Klassovskiy nemis va rus tinish belgilarini qo'llash sistemasida semantic asos ustunligini izohlab berdi va ularni sintaktik asosga tayangan ingliz, italyan va fransuz punktuatsion tizimiga qarama-qarshi qo'ydi.

Keyinchalik tinish belgilarining amaldagi me'yorlarga bo'ysunmaydigan, universal imkoniyatlari yuzaga chiqa boshladi. Masalan, tire, ikki nuqta, nuqtali vergul kabi tinish belgilarining turli uslubdagi matnlarda turli funksiyalarni yuzaga chiqarishi, o'zaro o'rin almashishi, ma'nodoshlik, variantlilik, polufunksionallik kabi jihatlari oydinlasha boshladi. Bu esa tinish belgilari tadqiqiga yangicha yondashuvlarga zamin hozirladi.

Tinish belgilari tadqiqining zamонавија bosqichi turli tilshunosliklarda turli davrlarga to'g'ri keladi. Bu tinish belgilarining ayni paytda ko'pchilik tillarda mavjud umumiyl — an'anaviy me'yorlaridan tashqari xususiy – stilistik me'yorlarining shakllanishi, qolaversa, milliy til taraqqiyoti bilan bog'liq jarayon.

XX asrning ikkinchi yarmida ko'pchilik tillar, jumladan, rus tili va u hukmron bo'lgan sobiq sho'ro tasarrufidagi milliy tillarda (1956-yil) imlo islohoti o'tkaziladi. Imlo masalalari doirasida punktuatsiyaga ham zamонавија – faqat sof lingvistik nuqtayi nazardan emas, metodik, didaktik, psixologik, kommunikativ, stilistik, poetik, semiotik aspektlarda yondashish imkonи tug'ildi. Punktuatsion me'yorlarni tartibga solish (kodlashtirish)ni murakkablashtiruvchi holatlar, badiiy adabiyotda tinish belgilarining uslubiy imkoniyatlarining kengayib borayotgani, ijodkorlarning tinish belgilarini individual qo'llash orqali uslubini yaratishga intilishi, me'yorlashtirilgan va tartibga solinmagan



muallif punktuatsiyasi kabi masalalarga diqqat qaratila boshladi. Jahon tilshunosligida bu boradagi ilk urinishlar S.I.Abakumov, A.B.Shapiro, A.A.Reformatskiy, I. A.Boduen de Kurtene, L.G.Vedenina, N.S.Valgina, D.E.Rozental, N.N.Barulina, D.Kristal, M.Garret, K.F.Meyyer, B.S.Shvarskopf, G.Nyunberg, M.V.Parkes, N.P.Branigan, B.Jounslarning ishlaridan boshlanadi.

Punktuatsiya taraqiyotining ushbu bosqichida ham ilmiy talqinlarda dastlabki bosqichga xos bo‘lgan adabiy til me’yorlari – grafik, orfografik, punktuatsion (sintaktik) me’yorlarni o‘qitish, ya’ni ona tili o‘qitish metodikasi doirasida yondashish an’anasi saqlanib qoldi. Xususan, O.S.Chekanskaya, V.G.Dubrovin, N.S.Valgina, V.A.Itskovich, A.I.Nikerov, L.V.Vvedenskaya, B.I.Osipov, D.Eytchisonlarning ishlarida buni yaqqol ko‘rish mumkin.

O‘zbek punktuatsiyasi fani shakllanishi va taraqqiyotida muhim bosqich hisoblangan ushbu davrda H.G‘oziyev, G‘.Abdurahmonov, K.Nazarov, Sh.Shoabduraxmonovlarning sof lingistik tadqiqotlari bilan birga imlo va sintaksis o‘qitish doirasida ham sohaga oid qator amaliy ishlar ham amalga oshirildi. Xususan, Z.Ma’rufov va Y.Abdullayevning “Sintaksis va punktuatsiya mashqlari to‘plami”, K.Nazarovning “To‘g‘ri yoza olasizmi?”, “Ajratilgan bo‘laklarda punktuatsiya”, “O‘zbek tili ishora-imlo qoidalari”, H.Rustamovning “Sintaksis va punktuatsiya o‘qitish metodikasi”, G‘.Abdurahmonovning “Punktuatsiyadan tablitsalar”, “Punktuatsiya o‘rgatish metodikasi”, H.G‘afurovning “Atov gaplarda intonatsiya va punktuatsiya masalalari” kabi ilmiy maqola, darslik va qo‘llanmalarida o‘z davrning ijtimoiy-siyosiy, madaniy ehtiyojlari doirasida amaliy ishlar bajarildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Punktuatsiya. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
2. Baxriddinova B.M. Zamonaviy o‘zbek punktuatsiyasi asoslari. Monografiya. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – 64 b.
3. Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek tilida punktuatsiya. – Toshkent: 1955.
4. Nazarov K. O‘zbek tili punktuatsiyasi. - Toshkent: “O‘qituvchi”, 1976.
5. Zamonaviy o‘zbek punktuatsiyasining dolzarb muammolari. “Ma’rifat”, 2014 y., №



6. O'zbek tilining punktuatsiya qoidalari "Til va adabiyot ta'limi" Toshkent, 2015 yil, 1- 7-sonlar
7. Krýsin L.P. K sootnosheniyu sistemy yazyka, yego normy i uzusa // Kommunikativnye issledovaniya: Nauchnyj журнал. – 2017. – № 2 (12). – S. 20-31.
8. Biyanova M.V. Punktuatsionnye sistemy: sinxronnyi i diachronnyi aspekty: avtoref. diss. ... kand. filol.nauk. – Ijevsk, 2010. – 24 s. – S 3.
9. Kobrina N.A., Malaxovskiy L.V. Angliyskaya punktuatsiya: Uchebnoe posobie. – Moskva: Izdatelstvo literatury na inostrannix yazykakh, 1959. –110 s. – S.10